

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETIDA 15-16-SENTABR

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY-TEXNIK
KONFERENSIYA MATERIALLARI

2-qism

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION, AND ECONOMY IN THE
FIELD OF CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL REPUBLICAN CONFERENCE

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ И
ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

URGANCH-2025

TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A.Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R.Q. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

ASFALT-BETON QOPLAMALARINI STATIK XOSSALARINI TADQIQ QILISHDA DASTLABKI VAQTINCHALIK STANDARLARNI QO‘LLASH BO‘YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI.

Nuriddinov A.O.

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. Doktorant

Kalit so‘zlar: *asfalt-beton, buzmasdan sinash usul, normativlar, ekspluatatsion ko‘rsatkichlar, deformatsiya.*

Annotatsiya. *Ma'lumki asfalt-beton qoplamasining [eksplyutatsion](#) xossalarini baholashda [zamonaviy](#) buzmasdan sinash usullari yoki tadqiqot metodlaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada asfalt-beton xossalarini baholash va uni bashorat qilish uchun qisqa muddatli dastlabki standartlar haqida jahon tajribasi keltirib o'tilgan.*

Abstract. *It is known that the use of modern non-destructive testing methods or research methods plays an important role in assessing the performance properties of asphalt concrete pavements. This article presents world experience in short-term preliminary standards for assessing and predicting the properties of asphalt concrete.*

Keywords: *asphalt concrete, non-destructive testing method, standards, operational properties, deformation.*

Abstract. *It is known that the use of modern non-destructive testing methods or research methods plays an important role in assessing the operational properties of asphalt concrete pavements. This article presents world experience in short-term preliminary standards for assessing and predicting the properties of asphalt concrete.*

Asfalt-beton aralashmasini loyihalash jarayonida belgilangan ishlash ko‘rsatkichlari (ekspluatatsion xossalari) bilan optimal tarkibini tanlash asfalt-beton qoplamasining xizmat qilish muddatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Asfalt-beton aralashmasining optimal tarkibini loyihalashda yo‘l laboratoriyalarining o‘lchov asboblari va sinov uskunalari bilan jihozlanish darajasi

muhim rol o'ynaydi. Asfalt-betonning texnik samaradorligini xossalarini yetarli darajada kompleks baholay olmaslikning sabablaridan biri yo'l sohasida zamonaviy va mavjud yuqori aniqlikdagi o'lchash asboblari hamda sinov usullarining yo'qligi bo'lishi mumkin. Asfalt-betonni tadqiq qilishning buzmasdan sinash usullaridan foydalanish turli xil harorat sharoitlari va yuklarda materialning xossalarini baholashga imkon beradi. Yuqori aniqlikdagi asbob-uskunalar va zamonaviy sinov usullarining mavjudligi ayrim hollarda asfalt-beton aralashmasining tarkibini mahalliy materiallar, sanoat chiqindilari va boshqa ishlab chiqarish mahsulotlaridan foydalangan holda tanlash imkonini beradi, shu bilan birga yakuniy mahsulot (asfalt-beton) sifat darajasini saqlab qoladi va shu bilan avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash uchun moddiy xarajatlarni kamaytiradi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, asfalt-betonning ekspluatatsion xususiyatlarini prognoz qilish imkonini beruvchi noyob laboratoriya uskunalari ushbu jarayonga yuqori malakali sinov mutaxassislarini jalb qilishni va jiddiy uslubiy yondashishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda qisqa muddatda asfalt-beton va asfalt-beton qorishmasini tadqiq qilish uchun juda ko'p dastlabki vaqtinchalik standartlar (DvST ёки ПНСТ-предварительный национальный стандарт) ishlab chiqilgan. Misol uchun Rossiya Federatsiyasining davlat milliy standartidan (GOST R) farqli o'laroq, dastlabki vaqtinchalik standartlar (DvST) — bu cheklangan muddatga (3 yil) ishlab chiqilgan standartlashtirish hujjati bo'lib, dastlabki milliy standartni qo'llash jarayonida tajriba to'plash va keyinchalik milliy standartni ishlab chiqish mumkin bo'ladi[1].


Sinov usullari bo'yicha DvST ning aksariyati xorijiy standartlar qoidalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Asfalt-betonning aynan buzilish paytida nafaqat mustahkamlik xususiyatlarini aniqlash, balki bo'lishdan oldin ekspluatatsiya vaqtida uning xossalarini modellashtirish va shu bilan eng samarali materiallarni tanlashni hisobga olgan holda yo'l qoplamasining xizmat qilish muddatini taxmin qilish mumkin bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, materiallar va texnologiyalarning xususiyatlarini ishonchli bashorat qilish uchun tadqiqot algoritmlarini ochiq shaklda tushuntirishga imkon beradigan uslubiy hujjatlarning etishmasligi mavjud. 1-jadvalda asfalt-beton qoplamasining asosiy shikastlanish turlari, qoplamaning yuza

qismiga ta'sirlar ni DvST talablari bo'yicha tadqiqi qilish va laboratoriya sharoitida asfalt-betonning [eksplyuatsion](#) xossalarini bashorat qilish ko'rsatilgan.

Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, hozirgi vaqtda yangi innovatsion texnologiyalardan jumladan quyida ko'rsatilgan sinov usullardan foydalangan xolda yo'l qoplama materiallarini samaradorligini [baholashga](#) imkonini beruvchi katta hajmdagi tadqiqotlar to'plangan [2]. Xorijiy tadqiqotlar doirasida avtomobil yuklarining ta'siriga, ob-havo va iqlim sharoitlariga, ishlatiladigan materiallarning sifat ko'rsatkichlariga, asfalt-beton aralashmalarini yotqizish sifatiga, qoplamaning ishlash darajasiga va boshqalarga bog'liq holda asfalt-betonda deformatsiyaning rivojlanish xususiyatini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda [3].

1-jadval

Asfalt-beton qoplamasining asosiy shikastlanish turlari va ularni DvST usullari bilan bashorat qilish

Qoplamaning yuzasi holati	Qoplamalarning zararlanishini asosiy turlari	Zararning namoyon bo'lishi qoplama	Qoplamaning buzilishining muayyan turini baholashga yordam beradigan metodlarning turlari.
I. Qoplamaning suv o'tkazmasligiga ta'sir qiluvchi, transport vositasi foydalanuvchilari yo'lni idrok qilishiga ta'sir qilmaydigan ammo qoplamaning umrboqiyiligiga ta'sir qiladigan kamchiliklar	Darzlarning paydo bo'lishi		ПНСТ 135-2016 ПНСТ 128-2016 ПНСТ 136-2016
	Qoplama materiallarning bo'laklanishi, chuqurchalar shakllanishining dastlabki bosqichi va boshqalar.		-
	Boshlang'ich yoriqlarning shakllanishi (bo'ylama va ko'ndalang yoriqlar), Bu birinchi navbatda namlikning uzoq ta'siri natijasida yuzaga keladi.		ПНСТ 113-2016 ПНСТ 136-2016 ПНСТ 128-2016
	Yoriqlarning shakllanishi bir jinsli bo'lmagan yoriqlarning cho'kishi bilan, texnologik tartiblarning buzilishi, asos yoriqlarni aks ettirishi bilan bog'liq bo'lishi		ПНСТ 113- 2016 ПНСТ 128-2016